

7-9/1951 - son
2025-y. “ 11 ” 09

Idora va tashkilotlar

Raqamli texnologiyalar sohasidagi kadrlarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos keladigan yo'nalishlar bo'yicha malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi “UNICON.UZ – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” (“UNICON.UZ” MChJ) qoshida “Yangi raqamli texnologiyalarni o'qitish markazi” (*keyingi o'rinlarda – O'quv markazi*) tashkil etilgan.

O'quv markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” PQ-358-son qarori ijrosini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari xodimlarini, shu jumladan, sun'iy intellekt sohasida faoliyat yurituvchi dasturchilarni sun'iy intellektni joriy etish va qo'llash bo'yicha malaka oshirish kurslariga jalb etish maqsadida **2025-yilning 15 – 17-oktabr kunlari** (soat 10:00 dan 17:00 gacha) “**Sun'iy intellekt**” dasturi (*ilova qilinadi*) asosida qisqa muddatli malaka oshirish o'quv kursi **gibrid (oflayn va onlayn)** shaklda tashkil qilish rejalashtirilmoqda.

Bunda korxonaning ichki imkoniyatidan kelib chiqib, tinglovchi ishlab chiqarishdan ajralgan holda (**oflayn**) - o'quv kursi dasturini O'quv markaziga kelib, to'liq dars jarayonlariga qatnashgan holda o'zlashtirishi yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (**onlayn**) - o'quv kursi dasturini ish vaqtida masofadan o'zlashtirish mumkin.

O'quv mashg'ulotlari sun'iy intellekt sohasida katta amaliy tajribaga ega, malakali mutaxassislar tomonidan olib boriladi.

O'quv kursini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga o'rnatilgan tartibda sertifikat beriladi.

Ushbu o'quv kursida korxonangiz xodimlarini **shartnoma** asosida ishtirok etishga taklif etamiz. Bitta tinglovchi uchun o'quv kursining narxi **924 000** (*to'qqiz yuz yigirma to'rt ming*) so'm. O'quv kursida qatnashadigan xodimlar haqidagi ma'lumotlarni info@unicon.uz elektron pochta manziliga quyidagi jadval asosida yuborilishini so'raymiz.

T/r	F.I.Sh. (to'liq)	Korxona nomi	Lavozimi	Ta'lim olish shakli (onlayn yoki oflayn)	JShShIR	Telefon raqami

O'quv kursiga "UNICON.UZ" MChJ bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq belgilangan to'lovlarni amalga oshirgan tashkilotlarning xodimlari kiritiladi.

Shartnomani rasmiylashtirish va Sizni qiziqtirgan boshqa zaruriy ma'lumotlar olish bo'yicha (71) 208-81-51 (ichki raqam 1121), (90) 178-89-56 telefon raqamlariga va https://t.me/shartnoma_edu_unicon telegramm guruhiga murojaat qilishingiz mumkin.

"UNICON.UZ" MChJ Ma'lumotlar markazi: +998 71-211-88-88.

Ilova: 1 varaqda.

Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha direktor



U. Azimov